

**IKKI BUYUK ZAMONDOSH!***Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi**TOSHKENT DAVLAT**TRANSPORT UNIVERSITETI**Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi**[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi G'afur G'ulom va ikki xalqning suyukli farzandi Maqsud Shayxzodaning ham ijodiy ham do'stlik aloqalari Shayxzodaning "Gafurga xat" nomli she'ri talqinida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xat, umr, mehr, hayajon, do'stlik, g'azab.

**ДВА ВЕЛИКИХ СОВРЕМЕННОКА!***Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.**ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ**ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени**[yoldoshivafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshivafarangiz311@gmail.com)*

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются творческие и дружеские отношения между народным писателем Узбекистана Гафуром Гуламом и любимым ребенком двух народов Максудом Шайхзаде в интерпретации стихотворения Шайхзаде «Письмо Гафуру».

**Ключевые слова:** письмо, жизнь, любовь, волнение, дружба, гнев.

**TWO GREAT CONTEMPORARIES!***Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna**TASHKENT STATE**TRANSPORT UNIVERSITY**Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student**[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)*

**Abstract.** In this article, the creative and friendship relations between the people's writer of Uzbekistan Gafur Ghulam and the beloved child of the two peoples, Maqsud Shaykhzada, are considered in the interpretation of Shaykhzada's poem "Letter to Gafur".

**Key words:** letter, life, love, excitement, friendship, anger.

Do'st-bu sizning eng baxtli kunlaringizda yoningizda turadigan haqiqiy dildoshingiz shuning bilan birga har qanaqa og'ir va tashvishlarga to'la kunlaringizda ham siz uchun haqiqiy yelkadosh bo'la oladigan insondir. Sinovli dunyoda yashar ekanmiz har bir onimizni do'stlarimiz bilan o'tgan go'zal xotiralar bezasin deb qolamiz. Iste'dodli shoir va mahoratli tarjimon Maqsud Shayxzoda o'zining yaqin do'sti O'zbekiston xalq yozuvchisi G'afur G'ulomga qarata shunday she'riy xat yozadi:

Oltmish yillik umrning hayajonlarin,  
To'polonlar, hujumlar, qahqahalarin,  
Ko'priklarni, bog'larni, chorrahalarin,  
G'azablarni, mehrni, so'z marjonlarin –  
Bir lahzada tark etib ko'chdingmi, do'stim?  
Shahringning ro'yxatidan o'chdingmi, do'stim?



Bilamizki, serqirra ijodkor, adabiyotimizda o'zining “Shum bola” asari orqali shuhrat qozongan yozuvchi G'afur G'ulom 1903 yilda tavallud topgan. O'z umri davomida ko'plab adabiy asarlari bilan yosh-u qarining ko'nglidan birdek joy egallagan shoirimiz 1966-yilda bu olamdan ko'z yumadi. U yashab o'tgan 63 yil umri davomida shunday o'lmas asarlar yaratdiki, u har bir yosh qalbida abadiylikka muhrlanib qoldi.

Shoir 60 yillik umri davomida boshidan kechirgan hayajonli onlari, to'polonlar, hujumlar va baxtli qahqahalarin, umr ko'priklari, duch kelish mumkin bo'lgan chorrahalarin va g'azab-alamlarni, marjon kabi tizilgan so'zning lojuvarddek nozik

qirralarini nahotki bir lahzada o'chirib yubording, nahot bugun tug'ilgan shahring ro'yxatida seni topolmayman deya nolishli murojvat bilan boshlanadi.

Abdulg'afur, mavlono, shoshdim zovtalab:

Xabarlarimi yanglishgan, yo'qsa quloqlar!..

G'afur G'ulom va o'lim – qovushmagan gap,

Misoli qish va rayhon, dasht va buloqlar.

G'afur G'ulom va sukut — ikki yov lashkar,

Nuqul urushayotgan dushman taraflar.

G'afur Gulom o'limi haqidagi xabarni eshitgan Shayxzoda kuchli ta'sir ostida qolganinni shu jumlar orqali ifodalagan. Bunday xabar adashib aytildimi yoki bo'lmasa mening quloqlarim yanglishib eshitdimi deya hayron qoladi shoir. Umuman bu so'zlar bir-biriga munosib emas ya'niki qish fasli va bahorda go'zal ochilib turadigan rayhon guli kabi bir-birifan butkul yiroq bo'lgan yot tushunchalar ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, ustozimiz G'afur G'ulom so'zga chechan va ko'p gapiradigan insonlar juda samimiy bo'lishadi deganlaridek juda soddadil va samimiy bo'lganlar. Shu bois shoirimiz "sukut" so'zi Gafurga butunlay yot tushuncha ekanligi aytgan.

«Xayr!» demay ketganing ne deganing u?

«Tez qayturman bemuhlat!» deganingmi u?

«O'lim asli o'tkinchi bir hodisa-yu,

Hayot mangu bir holat!» deganingmi u?

Qaydan seni qidiray, adresing qayer?

Kimdan seni so'rayin? Odamlar ne der?<sup>1</sup>

Sen bilan vidolasholmay qoldim "Xayr" demay ketding, seni qanday tushunay, ayt seni kimlardam so'ray, odamlar ne der bu holatdan" zorlanadi shoir. Hayot bir tekisda o'tuvchi bir hodisaku deya jim ketdingmi deydi shoir do'stiga achchiq nolasida. Butun she'r davomida yaqin do'stidan ayrilgan, achchiq alamlari yuragini teshayotgan haqiqiy do'st tilidan yozilgan ushbu she'r insonni doim yaxshi ishlar qilishga, bu dunyo o'tkinchi dunyo ekanini yana bir bor yodga soladi. Yozuvchi o'z she'rini quyidagi misralar orqali yakunlaydi.

Shoirning soyasidir yotgan go'rida.

G'afur, bayting zarb bo'lib million dilga

So'zing ko'char masaldek tillardan-tilga.

... Ammo bejo bo'lsaydi shu g'amgin she'rim,

Oh, naqadar bo'lardim xursand va xurram.

Agarda, sen noxosdan (bo'lsin deb irim) –

Qopqada gudok chalib tanish mashina, —

<sup>1</sup> [ilmlar.uz/maqsud-shayxzoda-sheerlar-toplami](http://ilmlar.uz/maqsud-shayxzoda-sheerlar-toplami)

Menga mehmon qo'nsayding bir oqshomgina.

Sen bugun mangular shahriga ko'chib o'tgan bo'lsang-da, sen yaratgan asarlar, she'rlar jamiyki adabiy merosing bugun million, million, yuraklarni zabt etib ularning yuragida abadiylikka muhrlangan. Sen yozgan so'zlar bugun masal kabi yurakdan yuraklarga ko'chib o'tayotir. Agar qaniydi buning imkoni bo'lsa, bir oqshomgina mening aziz mehmonim bo'lsayding, sen bilan yana avvalgidek bir dildan suhbat qurshak edi deya zorlanadi shoir.

Insonni do'sti bor ekan - uni doim kuchi bo'ladi, va qudrati ham. Agar do'stlik yaxshilik uchun qurilgan bo'lsa bu do'stlik qudratli kuchga aylanadi, agar yomon niyatda qurilgan do'stlik bo'lsa, buni aksi bo'ladi. Hamma insonni albatta bir do'sti bo'ladi, men ham bu do'stlikka ishonaman, va do'stlik eng katta kuch deb bilaman. Lekin afsuski oramizda do'stini arzimagan pulga sotib ketayotganlar bor, bu insonlarni ko'rsa albatta odamning qalbi og'riydi.

Biz esa hayotimizda yaxshi do'st izlashga harakat qilishimiz kerak, va u do'stlikni qudratli kuchga aylantirishimiz lozim.<sup>2</sup> Allohimdan faqatgina hayotimizda biz uchun eng xayrli insonlar bo'lishini har qachon duolarimizda so'rashimiz lozim!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT(REFERENCES)**

1. [ilmlar.uz/maqsud-shayxzoda-she'rlar-toplami](http://ilmlar.uz/maqsud-shayxzoda-she'rlar-toplami)
2. <https://znaniya.com/task/41975180#readmore>
3. M.Shayxzoda. She'rlar
4. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/maqsud-shayxzoda-she'rlar.html>

<sup>2</sup> <https://znaniya.com/task/41975180#readmore>